HAKIM TERMIZIY SO‘Z MA’NOLARINI SHARHLASHDA ISLOMNING BIRLAMCHI MANBALARIGA ASOSLANISHI

Fathiddin Muhammadjonov,
Birlashgan Arab Amirliklarining Toshkentdagi elchixonasi tarjimoni

Qabul qilindi: 20.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 21.10.2025
Tasdiqlandi: 22.10.2025

Kalit so‘zlar:
Hakim Termiziy, Qur’oni karim, hadisi sharif, semantika, sinonimlar, leksik tafovut, intertekstual yondashuv, majoziy tafakkur, islom manbalari, arab tilshunosligi.

Annotatsiya. Ushbu tezisda alloma Hakim Termiziyning so‘z ma’nolarini sharhlashdagi yondashuvi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Termiziy o‘z asarlarida, xususan, “al-Furuq va man‘u-t-taroduf” hamda “Tahsil nazoir al-Qur’on” nomli manbalarida Qur’oni karim va hadisi shariflarga asoslanib, leksemalarning semantik tafovutlarini izohlashdagi o‘ziga xos metodini qo‘llagani yoritiladi.
Alloma sinonim deya qaralgan so‘zlar orasidagi nozik ma’no farqlarini ochib berishda islomning birlamchi manbalari – Qur’on oyatlari va hadis matnlariga tayanadi. U “الانتصار” va “المفاتشة”, “الانتقام” va “المراء” kabi so‘z juftliklarini tahlil etish jarayonida oyat va hadislarni dalil sifatida keltirib, semantik differensiyani diniy-axloqiy asosda tushuntiradi. Hakim Termiziyning Qur’oni karim va hadisi shariflardan foydalanish usuli, uning tahlil va sharhlarida intertekstual yondashuv, tasavvufiy tafakkur va lingvistik tahlil uyg‘unligi asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, alloma so‘z ma’nolarini sharhlashda lug‘aviy tahlildan tashqari, ma’naviy-ruhiy qatlamni ham qamrab olgan semantik-falsafiy metodni qo‘llaganligi aniqlanadi.

Asosiy qism: Islom dinida musulmon dunyosi uchun ushbu dinni anglashda Qur’oni karim va hadis shariflar birlamchi ahamiyat kasb etadi. Qur’oni karim saj’ usulidagi adabiy arab tilida keng qo‘llaniladigan so‘zlar va frazeologik birliklarni o‘zida mujassam etgan manba hisoblanadi. Hadisi shariflar Qur’oni karimni, xususan, islom dini arkonlarini sharhlab kelgan va musulmon

olimlarining turli diniy ilmlarni shakllantirishda murojaat etuvchi asosiy manbasi hisoblanadi.

Alloma Hakim Termiziy ham lingvistikaga oid asarlarida leksemalarning semalarini izohlashda Qur'oni karim va hadisi shariflarga murojaat qilgan. Termiziyning Qur'oni karim va hadisi shariflariga tayanishi uning bu ilmlarda chuqur ilmga ega bo'lishini talab etadi. Leksema semalarini sharhlash asnosida ushbu so'z ishtirok etgan oyat va hadislarni topib so'zning semalarini ifodalashda keltirib o'tgan. Xususan, alloma so'z ma'nolarini izohlashda o'zining assotsiativ tafakkuri va lingvistik qarashlariga tayangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, izohlangan leksemalarning aksari Qur'oni karim va hadisi shariflardan olingan. Hakim Termiziyning faoliyat yuritgan sohasi arab tilshunosligi bo'lmasada, o'zining lug'atshunoslikdagi uslubiyatiga ega bo'lgan. Allomaning so'z ma'nolarini izohlashda Qur'oni karim va hadis shariflarni qo'llashi uning tafsir va hadis ilmlarida salmoqli faoliyat yuritganini ko'rsatadi.

Hakim Termiziy sinonim deya talqin qilinadigan so'zlarning ma'nolarini ochib berish asnosida o'zining "al-Furuq va man'u-t-taroduf" asarida ko'plab oyat va hadislarga murojaat etadi.

"Al-furuq va man'u-t-taroduf" asarining (4) الفرق بين المفاتشة والمراء bobi eng qisqa bob sanaladi. Ushbu bobda muhokama va bahs so'zlari o'rtasidagi ma'nolarning farqi ifoda etiladi. Lug'atda ushbu so'zlar muhokama, bahs degan ma'nolarni bildiradi. Lekin Termiziy ushbu ikki so'z o'rtasidagi differensiyani keltirib, "المفاتشة" so'zi kishi birodariga haq namoyon bo'lishi uchun yaxshi so'z bilan munozara qilinishiga nisbatan qo'llanishini bildiradi. Ya'ni, inson "المفاتشة"da birodariga haq namoyon bo'lishini istaydi. Zohirda buning sinonimi hisoblanmish "**مراء**" so'zida bo'lsa, kishi birodarini bahsda bo'ysundiradi, uni shubhalantirib bo'lsada, ustunlikni o'z qo'li ostida saqlab qolishga harakat qiladi. Quyida ta'riflarning ayni o'ziga guvoh bo'lish mumkin:

فالمفاتشة: أن يفاتش صاحبه عن الحق بلطائف النظر ولطائف الكلام، واستنباط الأمور حتى يظهر له الحق.
والمراء: إذا ما راه بنصيب النفس، فأراد تشكيك صاحبه، وأن يجعل الأمير عليه شبهة لتكون الحجة بيده[1].

"Muhokama, bahs **(المفاتشة)**: bu go'zal nazar va chiroyli kalom ila haqni istash (so'rash, talab qilish), birodariga haq ko'ringunga qadar dalillar ustida aql yurgizib (hukmni, masalalarni) izlashdir. (Ikki tomon o'rtasidagi) bahs, munozara (مراء): agar o'z manfaatini ko'rsa, sohibini (ikkinchi tomonni) shubhaga solishni istasa va dalil o'zi tarafida bo'lishi bilan birodarini shubha o'laroq bo'ysundirishni xohlasa (qo'llaniladi)".

Alloma ba'zi boblarda ikkala so'zni batafsil oyat va hadislarga asoslangan holda sharhlasa, boshqalarida birinchi so'zni batafsil sharhlab ikkinchi so'zda qisqa ta'rif bilan, ta'bir joiz bo'lsa, bir dona so'z bilan kifoyalanadi. Masalan, birinchi bobda "المداراة" va "المداهنة" so'zlari batafsil sharhlangan. Lekin beshinchi **الفرق بين الانتصار والانتقا** bobida bo'lsa, Termiziy الانتصار so'ziga atroflicha to'xtaladi. Izohlash asnosida Qur'oni karim oyatlariga murojaat qilinadi. Sahoba Abu Bakr (r.a) bilan bo'lgan voqea keltiriladi. Ikkinchi so'z الانتقام so'zi bir dona jumla bilan ifoda etiladi.

Hakim Termiziyga ko'ra الانتصار bu Alloh taolo haqqi va Uning uchun zafar qilish, qaysi kurashish, intiqom olishdir. Ushbu so'z zafar qilish, qarshi kurashish, himoya qilish, intiqom olish ma'nolarini bildiradi. Alloma ushbu so'zning intiqom, o'ch olish ma'nolarini tanlab olgan. Yana ta'rifda aytiladiki, الانتصار uchun, ya'ni Alloh uchun o'ch olishga faqatgina qurbat maqomini olgan, o'zining nafsiga itoat qilishdan xalos bo'lganlar, Alloh taolo mo'minlar uchun qasam ichgan izzatdan nasibasi borlargina kuchi yetadi. So'ngra shu mavzuga aloqador Qur'oni karim "Munofiqun" surasining 8-oyati keltiriladi:

{وَلِلَّهِ الْعِزَّةُ وَلِرَسُولِهِ وَلِلْمُؤْمِنِينَ}

[1] الحكيم الترميذي، الفروق ومنع الترادف ت. محمد جيوشيز الناشر: مطبعة الإيمان. – القاهرة. 2005. – ص 66.

“Holbuki, azizlik Allohga, Uning rasuliga va mo‘minlarga xosdir”.

Alloma fikrlarini davom ettirib, mana shu maqomga yetgan kimsani Alloh aziz qilgan banda deb aytadi. Agar unga jabr-zulm qilishsa, zulm qiluvchi kimsaga Alloh taolo aziz qilib qo‘ygan izzati uchun qarshi kurashadi. Bu maqomga yetishmagan kimsa (zulm qiluvchi) menga jabr qildi va meni xorladi, men nasfning asirligidan hanuz qutilmagan bo‘lsam, zulm qiluvchiga nima uchun kurasham, axir, qachonki men g‘olib bo‘lsam, nafs bu g‘alabadan xuddi qalb o‘z nasibasini olgani kabi nafs ham o‘zining nasibasini oladi.

Agarda u zulm qiluvchiga qarshi kurashsa, uning mislga misl[2] qasos olish huquqi bor ekani eslatiladi. Qasos olgan kimsaga afv qilganning ajri berilmasligi ta’kidlanib yana Qur’oni karim Shuaro surasining 40-oyati keltiriladi:

{وَجَزَاء سَيِّئَةٍ سَيِّئَةٌ مِثْلُهَا فَمَنْ عَفَا وَأَصْلَحَ فَأَجْرُهُ عَلَى اللَّه}

“Yomonlikning jazosi o‘zi barobaridek yomonlikdir. Kim afv etib isloh qilsa, uning ajri Allohning zimmasidadir”. Termiziyning boshqa asarlarida ham Qur’oni karim oyatlari sharhning bosh mezoni ekanligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Xulosa: Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Hakim Termiziy leksemalar semalarini izohlashda o‘zining Qur’oni karim va hadisi shariflarga asoslangan taffakuriga tayangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rasulov T. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksikologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – 224 b.

2. Normurodov Yo. Sinonimlar semantikasi va uslubiyati. – Toshkent: Fan, 1993. – 200 b.

3. At-Termiziy, al-Hakim Muhammad ibn Ali. Al-Furuq va man’-u-taroduf. M.Juyushiy nashrga tayyorlagan. Qohira: Iymon nashriyoti, 2005. – 328 b.

[2] Unga zulm qilingan narsada teng miqdorda.

4. At-Termiziy, al-Hakim Muhammad ibn Ali, Tahsil nazoir al-Qur'on. – Qohira: Dor al-kutub va al-vasoiq al-Misriya. ب Inv. № 19516/1. – 176 b.

5. At-Termiziy, al-Hakim Muhammad ibn Ali. Tahsil nazoir al-Qur'on.– Iskandariya. Maktaba baladiya al-Iskandariya. Qo'lyozma. Inv. № 3585/11. – 159 b.

6. Abu Hanifa Nu'mon ibn Sobit. Al-Fiqh al-akbar/S.M.Oltinxon To'ra tarj. – Toshkent: Adolat, 2003. – 65 b.

7. Ahmad Abdurrahmon. Al-Fath ar-Rabboniy li-tartibi Musnadi al-Imom Ahmad. – Qohira: Dor ihyo at-turos al-arabiy. Nashr yili ko'rsatilmagan. –T. 3.